

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV VA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI****Davronova Maxfuza Isroilovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi  
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati  
instituti professori (DSc), f.f.d

**Shanazarova Nigora Abirkulovna,**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali,  
“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası  
“M.Sc. Theory and methods of primary education” mutaxassisligi magistranti  
Samarqand, Uzbekistan  
[gigijon464@gmail.com](mailto:gigijon464@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim tizimidagi pedagogik paradigmaning transformatsiyalashuvi sharoitida differensial yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning metodologik asoslari tahlil qilinadi. O'quv jarayonini tabaqalashtirish (differensiallash) – o'quvchilarni ularning individual-psixofiziologik xususiyatlari (IQ darajasi, temperament, kognitiv uslub) va tayyorgarlik darajasiga ko'ra guruhlash orqali ta'lim mazmunini moslashtirish mexanizmi sifatida asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kognitiv uslub, fasilitator, yaqin rivojlanish zonasi, individual-psixofiziologik xususiyatlari, adaptiv tizimlar.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА И ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Аннотация:** В данном исследовании анализируются методологические основы дифференцированного подхода и личностно-ориентированного обучения в условиях трансформации педагогической парадигмы в системе начального образования. Дифференциация учебного процесса обосновывается как механизм адаптации содержания образования посредством группирования учащихся в соответствии с их индивидуально-психологическими особенностями (уровень IQ, тип темперамента, когнитивный стиль) и уровнем подготовленности.

**Ключевые слова:** дифференцированный подход, личностно-ориентированное обучение, когнитивный стиль, фасилитатор, зона ближайшего развития, индивидуально-психологические особенности, адаптивные системы.

## **SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DIFFERENTIATED APPROACH AND LEARNER-CENTERED EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION**

**Abstract:** This study analyzes the methodological foundations of the differentiated approach and learner-centered education in the context of the transformation of the pedagogical paradigm within the primary education system. The differentiation of the learning process is substantiated as a mechanism for adapting educational content through grouping students according to their individual psychophysiological characteristics (IQ level, temperament type, cognitive style) and their level of academic preparedness.

**Keywords:** differentiated approach, learner-centered education, cognitive style, facilitator, zone of proximal development, individual psychophysiological characteristics, adaptive systems.

**KIRISH.** Global raqamlashtirish va ta'lim paradigmasining transformatsiyalashuvi sharoitida o'quv jarayonini tabaqalashtirilgan (differensial) asosida tashkil etish zamonaviy didaktikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuni shunchaki bilimlar majmuini yetkazishdan (an'anaviy paradigma), o'quvchini jarayonning faol subyektiga aylantirish va uning individual-kognitiv imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasiga o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida o'quvchi shaxsini ta'lim tizimining bosh obyekt va subyekt sifatida e'tirof etilishi, har bir ta'lim oluvchi uchun individual rivojlanish trayektoriyasini tanlash huquqini kafolatlaydi [2]. Boshlang'ich ta'lim bosqichida shaxsning ontogenezidagi fundamental stadiya hisoblanib, fenomenologik paradigma doirasida o'quvchining kognitiv-motivatsion sohasi, ijtimoiy adaptatsiyasi hamda bilimlar tizimiga nisbatan subyektlik statusi va munosabatlarining asosi shakllanadi. Empirik tadqiqotlarda o'quvchilarning individual-tipologik xususiyatlari, kognitiv uslublari, temperament dinamikasi hamda intellektual koeffitsiyenti (IQ) bo'yicha sezilarli darajadagi tabaqalanganligini (differentia) tasdiqlaydi. An'anaviy ta'limdagi "yagona mezonli baholash" va unifikatsiyalashgan (standartlashtirilgan) topshiriqlar tizimi subyektlarning individual variativligini inobatga olmaydi. Shunga ko'ra mazkur yondashuv o'quv jarayonida regressiv holatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, kognitiv imkoniyatlari nisbatan past o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik izolyatsiyani va o'ziga bo'lgan ishonchning destruksiyasini shakllantirsa, yuqori intellektual salohiyatli subyektlarda "kognitiv passivlik" (mental tormozlanish) va motivatsion inqirozni yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, differensial yondashuv – o'quv topshiriqlarini murakkablik darajasi, o'quvchilarning tayyorgarligi va

o'zlashtirish sur'atiga munosib ravishda moslashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy bosqichda differensial ta'lim nafaqat metodik usullar, balki sun'iy intellekt (SI) va adaptiv o'quv tizimlari yordamida har bir o'quvchining bilim darajasini real vaqt rejimida tashxislash (diagnostika) va individual metodik tavsiyalar berish imkoniyati bilan boyitilmoqda.

Mazkur maqolada ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini (temperament, xarakter, bilish jarayonlari) inobatga olgan holda differensial o'qitishni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Muammoning dolzarbligi shundaki, o'qituvchini dars jarayonida an'anaviy bilim beruvchi roldan tahliliy ma'lumotlar asosida jarayonni boshqaruvchi fasilitator va moderator darajasiga ko'tarish, shu orqali yaxlit pedagogik jarayon samaradorligini optimallashtirish zaruriyati bilan belgilanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosi so'nggi yillarda pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Manbalarga tayangan holda so'nggi yillardagi tadqiqotlarni o'rganishlarimiz natijalarida ularni quyidagi yo'nalishlarda umumlashtirishimiz mumkin:

**1. Differensial yondashuvning nazariy-metodologik asoslari** zamonaviy pedagogikada unifikatsiyalashgan (bir xillashtirilgan) ta'lim modelidan voz kechish va insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasiga o'tish zaruriyati bilan belgilanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu yondashuv shunchaki didaktik texnikalar majmui emas, balki ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratish strategiyasiga hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan murakkab pedagogik tizim sifatida talqin etilmoqda. Ushbu tizimning ilmiy-metodologik kengaytirilgan talqini quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

• **Subyektlik statusini ta'minlash:** Differensial yondashuv o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi passiv obyekt emas, balki ta'lim tizimining bosh subyekti va faol ishtirokchisi sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda talaba shaxsining o'zini ifodalash imkoniyatlari, o'rganish jarayonidagi erkinligi va noyobligini asrash markaziy o'ringa chiqadi.

• **Tizimli diagnostika va guruhlash:** Mazkur yondashuvning tizim sifatidagi mohiyati didaktik tashxis (diagnostika) natijalariga asoslanishidir. O'quvchilar intellektual salohiyati (IQ), temperament dinamikasi, qiziqishlari va o'zlashtirish sur'atiga ko'ra dinamik guruhlarga ajratilib, o'quv materiali har bir guruhning individual ehtiyojlariga munosib ravishda variatsiyalanadi (moslashtiriladi).

• **Didaktik integratsiya va adaptivlik:** Differensiallashtirilgan ta'lim tizimi o'quv topshiriqlarini murakkablik darajasi bo'yicha tabaqalash orqali kuchli o'quvchilarning salohiyatini to'liq namoyon etishiga, sust o'zlashtiruvchi

o'quvchilarning esa "kognitiv passivlik" va ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishiga xizmat qiladi.

• **Texnologik transformatsiya:** Bugungi kunda differensial yondashuv adaptiv o'quv tizimlari va sun'iy intellekt algoritmlari bilan boyitilib, har bir o'quvchining bilim darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish va individual metodik tavsiyalar berish imkonini yaratuvchi yuqori texnologik boshqaruv shakliga aylandi.

Demakki, differensial yondashuv o'qituvchini an'anaviy axborot yetkazuvchi roldan tahliliy ma'lumotlar asosida jarayonni muvofiqlashtiruvchi fasilitator va moderator darajasiga ko'taradi, bu esa yaxlit pedagogik jarayon samaradorligini barqaror oshirishning fundamental omilidir. Aynan shu yo'nalishda quyidagi olimlar o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Xususan, M.E.Ro'ziyeva izlanishlarida differensial yondashuvning amaliy ahamiyatini barcha o'quvchilarga yagona talab qo'yish orqali ularning individual farqlarini inkor etishga qarshi yo'naltirilganligini asoslab beradi [7]. S.Shodmonova - differensial ta'limning mazmunini o'quvchilarni intellektual rivojlanish (IQ), temperament va qiziqishlariga ko'ra tabaqalash mexanizmlari orqali ochib beradi [11]. S.Narbayeva esa differensial yondashuvning pedagogik-psixologik mazmunini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va inkluziv ta'lim bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilgan [12].

**2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va subyektlik statusi.** Zamonaviy pedagogik tahlillar ta'lim jarayonini an'anaviy (ratsionalistik) paradigmadan insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasiga transformatsiya qilish, ya'ni o'quvchini bilimlarni passiv qabul qiluvchi obyekt darajasidan o'z o'quv-bilish faoliyatining ongli va mas'uliyatli faol subyektiga aylantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Ushbu transformatsiya jarayonining ilmiy-metodologik asoslari quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- **Subyektlik statusining mohiyati:** Falsafiy va psixologik nuqtayi nazardan subyekt – bu bilish va predmetli-amaliy faoliyat egasi, ongli va maqsadga yo'naltirilgan faollik manbaidir. Ta'lim oluvchining subyekt sifatida shakllanishi uning o'z axborot ehtiyojlarini mustaqil shakllantirishi, ta'lim modelini tanlashi va o'quv jarayonida o'zining hayotiy tajribasini integratsiya qila olish layoqati bilan belgilanadi;

- **"Subyekt-subyekt" munosabatlari:** Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar iyerarxik (bo'ysunish) xarakteridan voz kechib, teng huquqli sheriklik va hamkorlik darajasiga ko'tariladi. Bunda o'qituvchi faqat axborot yetkazuvchi emas, balki o'quvchining individual rivojlanish yo'lini muvofiqlashtiruvchi fasilitator va moderator rolini bajaradi;

- **Refleksiya – subyektlik mexanizmi sifatida:** Ta'lim oluvchini faol subyektga aylantirishda refleksiv kompetensiya muhim mexanizm hisoblanadi. Refleksiya orqali o'quvchi o'z harakatlari va tajribasini tanqidiy tahlil qiladi, o'zining kuchli va

kuchsiz tomonlarini anglaydi hamda o'z rivojlanish trayektoriyasi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

- **Mustaqillik va erkin tanlov:** Subyekt statusiga ega bo'lgan o'quvchi o'quv jarayonida faqat reproduktiv (namuna asosida) harakat qilmasdan, balki muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yondashish va o'z-o'zini rivojlantirish sifatlarini namoyon etadi. Bu esa kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxsni ta'lim tizimining bosh subyekt va obyekt sifatida e'tirof etilishi bilan hamohangdir.

Ta'limda subyektlik statusining ta'minlanishi o'quvchini ijtimoiy-pedagogik ta'sirning passiv obyektidan o'z hayoti va kasbiy kamoloti uchun mas'ul bo'lgan, jamiyatda o'zligini namoyon eta oladigan ijodkor shaxsga aylantirishning fundamental shartidir. Bu yo'nalishda G.N.Davranovanning ta'kidlashicha, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda talaba shaxsining o'zini ifodalash imkoniyatlari va o'rganish jarayonidagi erkinligi markaziy o'rin egallaydi [9].

**3. Raqamli transformatsiya va Sun'iy intellekt (SI) integratsiyasi.** Ta'lim paradigmasining global raqamlashtirish sharoitida transformatsiyalashuvi differensial yondashuvni amaliyotga tatbiq etishning sifat jihatidan yangi, texnologik bosqichini belgilab berdi. Bugungi kunda SI vositalari va raqamli monitoring tizimlari o'quv jarayonini unifikatsiyalashgan (standartlashtirilgan) qoliplardan ozod qilib, uni har bir o'quvchining individual-kognitiv ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beruvchi asosiy determinantga aylandi. D.O.Abduqahhorova va S.X.Normurodova olib borgan tadqiqotlarida Sun'iy intellekt texnologiyalarining, xususan, adaptiv o'quv tizimlarining yuqori pedagogik samaradorligini ilmiy asoslab [10]. Mazkur tizimlar o'quvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va intellektual salohiyatini real vaqt rejimida (online monitoring) avtomatik tahlil qilish xususiyatiga ega. Bu esa o'qituvchiga dars mazmunini har bir subyektning kognitiv imkoniyatlariga munosib ravishda variatsiyalash (tabaqalashtirish) va intellektual yordamchi dasturlar orqali individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarda izolyatsiya hissi kamayadi, yuqori salohiyatli subyektlarda esa motivatsiya va mustaqil izlanish faolligi ortadi. U.I.Inoyatov kabi tadqiqotchilar raqamli transformatsiya sharoitida pedagogning an'anaviy roli tubdan o'zgarishini ta'kidlaydilar [16]. Raqamli texnologiyalar o'qituvchini shunchaki axborot uzatuvchi ("translyator") funksiyasidan ozod qilib, uni tahliliy ma'lumotlar (data analytics) asosida jarayonni muvofiqlashtiruvchi fasilitator va moderator darajasiga ko'taradi. SI tomonidan taqdim etilgan diagnostik ko'rsatkichlar pedagogga o'quv jarayonidagi "metodik bo'shliqlar"ni o'z vaqtida aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishda tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni "subyekt-subyekt" tamoyili asosida qayta qurib, ta'lim tizimining moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

SI integratsiyasi differensial ta'limni shunchaki metodik usuldan yuqori texnologik boshqaruv tizimiga aylantiradi. Bu esa o'quvchilarning raqamli savodxonligi va XXI asr ko'nikmalarini (tanqidiy fikrlash, muammo yechish) shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**4. O'qituvchining professional va refleksiv kompetensiyasi.** Differensial ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va pedagogik samaradorligi bevosita o'qituvchining refleksiv madaniyati hamda o'z kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilish darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Refleksiv kompetensiya zamonaviy pedagogika fanida o'qituvchining o'z tajribasini mazmunli anglashini, ta'lim muhitidagi transformatsiyalarga operativ moslashishini va asoslangan professional qarorlar qabul qilishini ta'minlovchi integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin etiladi. Individual-kasbiy rivojlanish va diagnostikasi yuzasidan Sh.Sh.Kenjaboyev bo'lajak o'qituvchilarning professional shakllanishini uzluksiz va dinamik jarayon sifatida tahlil qilib, ushbu tizimda diagnostik ta'minotning hal qiluvchi rolini ilmiy asoslab bergan [13]. Diagnostik yondashuv pedagogik oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy motivatsiyasi, kompetentligi va kreativ qobiliyatlarini muntazam ravishda "o'lchash" imkonini beradi. Mazkur mexanizm talabada sodir bo'ladigan ma'naviy-axloqiy va professional o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash hamda rejalashtirilgan didaktik natijalarga kafolatli erishish uchun maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatishga zamin yaratadi. "Lifelong learning" paradigmasi va shaxsiy sifatlar transformatsiyasi: N.S.Xakimova tomonidan ishlab chiqilgan "Lifelong learning" (umr davomida ta'lim) konsepsiyasiga asoslangan shaxsiy sifatlarni rivojlantirish modeli pedagogik kompetentlikni oshirishning fundamental strategiyasi hisoblanadi [15]. Ushbu model o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyojini faollashtirib, unda yangiliklarni qabul qilishga tayyorlik va adaptivlik sifatlarini shakllantiradi. Empirik ma'lumotlarga ko'ra, doimiy ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish respondentlarning 78 foizida o'z-o'ziga ishonchni va 82 foizida o'qishga bo'lgan motivatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali uning professional faoliyatidagi umumiy samaradorligini kafolatlaydi.

**MULOHAZA.** Olingan ilmiy manbalar va zamonaviy pedagogik tadqiqotlar tahlili asosida, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va dars loyihasini takomillashtirish masalalarini quyidagi kengaytirilgan akademik tahlil orqali bayon etish mumkin. Birinchidan, ta'lim paradigmasining transformatsiyasi va subyektlik statusini zamonaviy ta'lim tizimi an'anaviy bilim berish modelidan (ratsionalistik paradigma) insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasiga o'tish jarayoni bilan o'zgarishi bilan kechirmoqda. Ushbu transformatsiyaning markazida o'quvchini ta'limning passiv obyektidan o'z o'quv-bilish faoliyatini ongli boshqaruvchi faol subyektiga aylantirish strategiyasi yotadi. Subyektlik statusi o'quvchining o'z axborot

ehtiyojlarini mustaqil shakllantirishi, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini tanlashi va qilingan tanlov uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchidan, differensial yondashuv: “yaqin rivojlanish zonasi” va diagnostikada differensial yondashuv shunchaki metodik usullar majmuyi emas, balki o'quvchilarning individual-psixofiziologik xususiyatlari (IQ, temperament, kognitiv uslub) asosida ta'limda teng imkoniyatlar yaratuvchi strategik tizimdir. Diagnostik boshqaruv: ta'limni tabaqalashtirish muntazam didaktik tashxis natijalariga tayanadi. o'qituvchi o'quvchilarni intellektual salohiyati va o'zlashtirish sur'atiga ko'ra dinamik guruhlariga ajratib, o'quv materialini har bir subyektning ehtiyojiga moslashtiradi.

Uchunchidan, reflektiv kompetensiya va professional akmeologiya. O'qituvchining reflektiv kompetensiyasi — bu pedagogik tajribani tanqidiy tahlil qilish, kutilmagan vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi integrativ shaxsiy sifatdir.


To'rtinchidan esa, raqamli Transformatsiya va TPACK Modeli. Raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt (SI) integratsiyasi differensial ta'limni yangi texnologik bosqichga olib chiqdi. TPACK integratsiyasi - texnologik, pedagogik va fan mazmuni bilimlarining uyg'unligi (TPACK) o'qituvchiga adaptiv o'quv tizimlari yordamida har bir o'quvchi uchun individual o'quv yo'nalishini yaratish imkonini beradi. AI vositachiligi - sun'iy intellekt ta'limda shunchaki avtomatlashtirish vositasi emas, balki o'quvchining kognitiv o'sishini qo'llab-quvvatlovchi interaktiv fasilitator sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu o'qituvchini an'anaviy axborot uzatuvchi roldan tahliliy ma'lumotlar asosida jarayonni boshqaruvchi moderator darajasiga ko'taradi.

Beshinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish (Lifelong Learning)da bo'lajak o'qituvchining individual-kasbiy rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, u ta'limning an'anaviy triadasini (Bilim-Ko'nikma-Malaka) “sikstet” modeliga (Bilim-Ko'nikma-Malaka-Tajriba-Kompetensiya-Kompetentlik) transformatsiya qilishni taqozo etadi. “Lifelong learning” konsepsiyasi asosida o'qituvchi o'z ustida doimiy ishlashi, o'z-o'zini diagnostika qilishi va raqobatbardoshligini oshirishi – barkamol avlodni tarbiyalashning fundamental shartidir.

Refleksiv va differensial yondashuvlarning uyg'unligi ta'lim sifatini kafolatlovchi asosiy mexanizm bo'lib, u o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni “subyekt-subyekt” tamoyili asosida qayta qurishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'yicha olib borilgan muhokama va natijalarni quyidagi tizimli jadval orqali ifodalash mumkin. Ushbu jadval yondashuvning ilmiy asoslari va ularning amaliyotdagi natijalarini o'zaro bog'lab tushuntiradi.

1-rasm.

**Differensial va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning natijalari tahlili**  
**Ta‘limni differensiallash**

Yuqorida keltirib o‘tgan jadvalda ham differensial yondashuv shunchaki topshiriqlarni taqsimlash emas, balki o‘quvchining individual imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqaruvchi yaxlit tizimdir. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va o‘qituvchining reflektiv kompetensiyasi ta‘lim sifatini kafolatlovchi asosiy determinantlar bo‘lib xizmat qiladi.

**XULOSA.** Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar va manbalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich ta‘lim tizimida differensial yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim integratsiyasi ta‘lim samaradorligini oshirishning fundamental omili hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida differensial yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim integratsiyasi ta‘lim samaradorligini kafolatlovchi fundamental omil hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta‘lim paradigmasi o‘quvchini passiv obyekt darajasidan o‘z rivojlanish trayektoriyasini ongli ravishda belgilovchi faol subyekt darajasiga ko‘tarishni ustuvor vazifa etib belgilagan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixofiziologik xususiyatlari, intellektual salohiyati (IQ) va kognitiv uslublari turlicha bo‘lganligi sababli, unifikatsiyalashgan topshiriqlar tizimidan voz kechib, didaktik tashxis asosida tabaqalashtirilgan o‘qitishni tashkil etish zarur. Raqamli transformatsiya va Sun‘iy intellekt (SI) vositalarining integratsiyalashuvi har bir o‘quvchining bilim darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish va individual

metodik tavsiyalar berish orqali jarayonni yanada optimallashtirmoqda. Mazkur transformatsiya o'qituvchining an'anaviy bilim beruvchi rolini tahliliy ma'lumotlar asosida jarayonni muvofiqlashtiruvchi fasilitator va moderator darajasiga ko'taradi. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, differensial va individual yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshirib, nafaqat akademik natijalarni yaxshilashga, balki mustaqil fikrlovchi, raqobatbardosh va barkamol shaxsni shakllantirishning ma'naviy-intellektual poydevorini yaratishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (Huquqiy va konseptual asoslar uchun).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. A.A.Umarov Boshlang'ich sinf darslarida sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi. *International Journal of Scientific Researchers* (Shaxsga moslashtirilgan ta'lim qismi) 2025.
5. Ch.R.Qosimova *Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali fanlararo yondashuv* (Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modellari) 2025.
6. N.B.Xojiyeva Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi (O'quvchi individualligiga e'tibor qismi) 2024.
7. Ro'ziyeva M.E. Ta'limda differensial va individual yondashuvning o'rni. // *Inter education & global study*. 2025. vol.3, №12. B.436-443.
8. Ibodova N. Boshlang'ich ta'limda differensial yondashuv asosida dars tashkil etish. // *Uzbek Scholar Journal*. Volume 42, July 2025. B.5-8.
9. Davranova G.N. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'limning ahamiyati. // *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*. Vol. 2 No. 1, 2024.
10. Abduqahhorova D.O., Normurodova S.X. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi. // *Zenodo (International scientific-online conference)*, 2024.
11. Shodmonova S. Differensial ta'lim mazmuni va uning pedagogik imkoniyatlari. // *Science Shine*. Issue 12, Vol. 1, 2024.

12. Narbayeva S. Differensial yondashuv tushunchasining pedagogik-psixologik mazmuni va uning ilmiy talqini. // *Interdisciplinary Science*. Vol. 03, Issue 2, 2026.
13. Kenjaboyev Sh.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida. // *Pedagogik mahorat*. 6-son, 2024. B.74-78.
14. Xojiyeva N.B. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi. // *Pedagogik mahorat*. 6-son, 2024. B.214-218.
15. Xakimova N.S. “Lifelong learning” konsepsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli. // *Pedagogik mahorat*. 6-son, 2024. B.219-223.
16. Inoyatov U.I. Sun‘iy intellekt texnologiyalari va ta‘lim samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2023.
17. Mustaeva Elena Y. Development Of Reflective Competence in In-Service Teachers as A Pressing Pedagogical Issue. // *Current Research Journal of Pedagogics*. 07(01), 2026. B.33-36.